



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING QARORI

Navoiysh., IslomKarimovsh.k 77 A

2024 - yil 13 - yanvar

5-5-0-Q/24

Navoiy viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda “Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat tamoyillarini keng joriy etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-210-son Farmoni ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

Viloyatda munosib mehnat tamoyillarini ilgari surish, mehnat munosabatlari sohasida xalqaro standartlarni keng joriy qilish hamda odam savdosiga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish maqsadida:

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda “Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat tamoyillarini keng joriy etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-210-son Farmoni ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish milliy komissiyasi Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo‘yicha milliy komissiyasi (keyingi o‘rinlarda - Milliy komissiya) etib qayta tashkil qilinganligi hamda uning asosiy vazifalari etib quyidagilar:

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat va boshqa tashkilotlarning odam savdosiga qarshi kurashish, undan jabrlangan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, munosib mehnat tamoyillarini, xalqaro mehnat standartlarini keng joriy etish, fuqarolarning mehnat huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

odam savdosiga qarshi kurashish, undan jabrlanganlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, munosib mehnat tamoyillarini keng joriy etish,

fuqarolarning mehnat huquqlarini himoya qilishga oid dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni tashkil etish hamda ularning ijrosini nazorat qilish;

odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat tamoyillarini keng joriy etish sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning natijadorligini tahlil qilish, baholash, monitoring qilish hamda bu boradagi ishlar samaradorligini oshirish, xususan, sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

odam savdosiga qarshi kurashish, tartibga solinmagan mehnat migratsiyasi holatlarini kamaytirish, munosib mehnat tamoyillarini keng joriy etish va xalqaro mehnat standartlarini tatbiq etish bo'yicha xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish choralari ko'rish;

odam savdosiga oid jinoyatlarni aniqlash, tergov qilish, ularning oldini olish va ularga chek qo'yish hamda ushbu turdagi jinoyatlardan jabrlangan shaxslarga reabilitatsiya va reintegratsiya xizmatlarini ko'rsatish amaliyotini takomillashtirish;

odam savdosidan hamda majburiy mehnat holatidan keng jamoatchilikni ogohlantirishga, shuningdek, munosib mehnat tamoyillarini targ'ib qilishga va ommalashtirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha tavsiya va takliflar ishlab chiqish;

odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat tamoyillarini joriy etish sohasida xalqaro tajribani o'rganish, mazkur sohada axborotlarni yig'ish, tahlil qilish va ma'ruzalar tayyorlash belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish bo'yicha hududiy komissiyasi Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo'yicha hududiy komissiyasi (keyingi o'rinlarda - Hududiy komissiya) etib qayta tashkil qilinsin va uning tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Belgilansinki, hududiy komissiya:

ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i - Hududiy komissiya raisining o'rinbosari rahbarlik qiladigan Odam savdosiga qarshi kurashish masalalari bo'yicha kichik komissiyadan;

kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi boshlig'i - Hududiy komissiya raisining o'rinbosari rahbarlik qiladigan Munosib mehnat masalalari bo'yicha kichik komissiyadan iborat bo'ladi.

4. Hududiy komissiyaning asosiy vazifasi etib Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat tamoyillarini joriy etish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining

qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va Milliy komissiyaning taqdimnomalarini so‘zsiz, o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash belgilansin.

5. Hududiy komissiya (A. Tasbayev, L. Xayrullayev) joylarda har oyda kamida bir marotaba odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo‘yicha brifinglar, konferensiyalar, televizion ko‘rsatuvlar va boshqa targ‘ibot tadbirlarini tashkillashtirib borsin.

6. Shahar (tuman) hokimlari ikki kun muddatda o‘zlarining rahbarligida odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo‘yicha hududiy komissiyalarini tuzsin.

7. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (A. Tasbayev), viloyat kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi (L. Xayrullayev), shahar (tuman) hokimliklari va boshqa aloqador idoralar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu Farmoni mazmuni, mohiyati va ahamiyati to‘g‘risida joylarda keng qamrovli tushuntirish ishlarini olib borsin.

8. Viloyat hokimining 2019-yil 2-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-iyuldagi “Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5775-son farmoni ijrosini ta’minlash to‘g‘risida”gi Q-126-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Shahar (tuman) hokimlari bir oy muddatda o‘zlari qabul qilgan qarorlarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu Farmoniga muvofiqlashtirsin.

10. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosarlari, viloyat ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i A. Tasbayev hamda viloyat kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi L. Xayrullayev zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi



N.Tursunov

Navoiy viloyat hokimining
2024-yil 13-yanvardagi
5-5-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari

bo'yicha hududiy komissiya tarkibi

1.	N. Tursunov	-	Viloyat hokimi, hududiy komissiya raisi
2.	A. Tasbayev	-	Viloyat ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i, odam savdosiga qarshi kurashish masalalari bo'yicha kichik komissiya rahbari
3.	L. Xayrullayev	-	Viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi boshlig'i, munosib mehnat masalalari bo'yicha kichik komissiyasi rahbari
4.	M. Mamadiyarova	-	Viloyat hokimi o'rinbosari, oila va xotin-qizlarni qo'llab quvvatlash boshqarmasi boshlig'i
5.	A. Mirzayev	-	Viloyat prokurori
6.	E. Urunov	-	O'zbekiston Respublikasi DXX Navoiy viloyati boshqarmasi boshlig'i
7.	A. Allayev	-	Viloyat sudi raisi
8.	A. Murodov	-	Viloyat ma'muriy sudi raisi v.b.
9.	G'. Primov	-	Viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i
10.	N. Safoyev	-	Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i
11.	Sh. Djurayev	-	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha (ombudsman) vakilining Navoiy viloyatidagi vakili
12.	D. Yusupov	-	Viloyat bojxona boshqarmasi boshlig'i
13.	G'. Boboqulov	-	Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig'i
14.	Lavozimiga ko'ra		Viloyat yoshlar siyosati va sport boshqarmasi boshlig'i
15.	N. Tog'ayeva	-	Viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi kengashi raisi
16.	Lavozimiga ko'ra	-	Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil institutining viloyat hududiy bo'linmasi rahbari
17.	U. Baxromov	-	Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i
18.	Lavozimiga ko'ra		"Istiqbolli avlod" NNT Navoiy viloyat bo'limi rahbari
19.	N. Ashurov	-	viloyat ichki ishlar boshqarmasi odam savdosi qarshi kurashish bo'linmasi boshlig'i - odam savdosiga qarshi kurashish masalalari bo'yicha kichik komissiya mas'ul kotibi
20.	D. Usmonov	-	Viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi mehnat inspeksiyasi boshlig'i - majburiy mehnatga qarshi kurashish masalalari bo'yicha kichik komissiya mas'ul kotibi

Izoh: Hududiy komissiya a'zolari boshqa ishga o'tganda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki

tegishli vazifaning bajarilishi yuklatilgan shaxslar kiritiladi;

hududiy komissiya raisi yoki o‘rinbosarlarining taqdimiga asosan komissiya tarkibiga boshqa aloqador idoralar nodavlat tashkilotlar vakillari kiritilishi mumkin.